



## ISHLAB CHIQRARISH KORXONASIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMI (MXBT) NI TAHLILI

**Qobulova N.J.<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>t.f.n., dotsent, AndMI "MM" kafedrası mudiri,

**Abdumutalibov Javohirbek Shavkatbek o'g'li<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>"MM va TX" yo`nalishi 3-kurs talabasi

**Akbarov Asadbek Bozorali o'g'li<sup>3</sup>**

<sup>3</sup>"MM va TX" yo`nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337320>

Inson o'z mehnatining sifati va unumdorligini oshirish maqsadida mehnat qurollarini va ishlab chiqarish vositalarini doimiy va to'xtovsiz ravishda o'zgartirib, mukammallashtirib boradi. Buning natijasida u mehnat jarayonida doimiy ravishda yuzaga chiqadigan turli zararli va xavfli omillar ta'siri ostida qoladi. Turli zararli va xavfli omillar ta'siri ostida qolish hozirda, insoniyat XXI asrga qadam qo'yganda, dolzarb muammoga aylandi. Iqtisodiyot obyektlarining, ayniqsa, mashinasozlik va uning turli sohalarida murakkab texnik qurilmalar va mashinalarning qo'llanilishi natijasida ishlovchilarda nerv-psixologik, statik yuklanishlar, nevroz holatlari, kasb kasalliklari ko'paydi, avariya va falokatlar sodir bo'lishi ortdi. Bular o'z navbatida ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash masalasining ahamiyatini oshiradi.

Ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlashni samarali yechish muammosi jamiyat tomonidan qonuniy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, gigiyenik va davolash-oldini olish tadbirlari va vositalari tizimini ishlab chiqishni va amalga joriy qilishni talab etadi [1,2].

Bugungi kunda mehnat muhofazasi tushunchasi xalqaro miqyosda o'ta dolzarb va jiddiy tus olayotgan muammolardan biri sanaladi. Mehnat muhofazasi yuzasidan olib borilayotgan xalqaro me'yorlar sirasiga quyidagi talablar kiradi: ishchi-xodimlarning sog'lig'i va hayotini himoya qilish; davlat miqyosida mehnat muhofazasini ta'minlovchi me'yorlarni qabul qilish va xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish; mehnat muhofazasi bo'yicha davlat boshqaruvi; mehnat muhofazasi talablarining bajarilishi yuzasidan davlat nazoratini olib borish; mehnat muhofazasi talablari ijrosi yuzasidan keng jamoatchilik nazoratini olib borish; mehnat muhofazasi, atrof- muhitning sofligini asrab-avaylash, boshqa ijtimoiy va iqtisodiy faoliyat turlarini muhofaza qilishni muvofiqlashtirib borish; mehnat muhofazasi bo'yicha loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirilishi; mehnat muhofazasi bo'yicha malakali mutaxassislarni yetkazib berish masalasi; mehnat muhofazasi





bo'yicha yagona axborot tizimini yaratish kabi masalalar va ularning ijrosi borasida halqaro me'yorlar belgilab berilgan.

Ishlab chiqarishning mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati — iqtisodiyot uchun mashina va mexanizmlar, jihozlar, agregat va apparatlar, asbob-uskunalar, madaniy-maishiy mollar, shuningdek, mudofaa ahamiyatiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi og'ir sanoat tarmoqlari majmuidir. Ushbu sanoat butun iqtisodiyotni texnika bilan ta'minlashda moddiy asos hisoblanadi. Fan-texnika taraqqiyoti, xalqning moddiy-madaniy farovonligi va mamlakat qudrati mashinasozlik sanoati taraqqiyotiga bog'liq[7,8,9].

Respublikamizda mashinasozlik sanoatining 10 dan ortiq tarmog'i mavjud. Ular qatoriga avtomobilsozlik, samolyotsozlik, traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi, elektrotexnika va vagonsozlik, asbobsozlik va kabelsozlik kabi yirik tarmoqlar kiradi.

Hozirgi kunda Andijon viloyatida 25 dan ortiq avtomobilsozlik korxonalar mavjud. Ushbu korxonalarga avtomobil ishlab chiqaruvchi eng zamonaviy texnologik uskunalar o'rnatilgan. Texnologik garayonni va ishlab chiqarishni boshqarishda xalqaro miqyosda tan olgan hamda amalda samarali natijalar berayotgan GM GMS va 5S tizimi qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu tizimlarda salomatlik va xavfsizlik masalasi eng ustuvordir [3,4].

GM GMS tizimida korxonalar qo'ygan siyosat va maqsadlarga erishishida barcha xodimlar xavfsizlik va salomatlik talablariga rioya etishlari lozim. Xavfsizlik va salomatlik ustuvorligini ta'minlashda butun e'tiborni har qanday xavflarni kamaytirishga qaratish xodimlar xavfsizligini kafolatlaydi.


GM GMS tizimining maqsadi:

Baxtsiz hodisalar = «0» (nol) ga erishish.

Salomatlik va xavfsizlikni ustuvorligini ta'minlashda quyidagilar muhim sanaladi:

- yetakchilikni qo'llab quvvatlash;
- 100% xavfsizlik qoidalariga rioya etishni ta'minlash;
- intizom;
- odob-ahloqni (yaxshilash) o'zgartirish;
- xavflarni o'rganish va sabablarini bartaraf etish.





1-rasm. Xavflarni kamaytirish piramidasi

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, 1 ta tasodifiy o'lim bilan tugaydigan baxtsiz hodisani oldini olish uchun 30000 ta baxtsiz tasodifni bartaraf etish lozim. Buning uchun ish vaqti yo'qotishini kuzatib boriladi (2-rasm). Ish vaqti yo'qotilishiga olib keladigan baxtsiz hodisalar o'rganilib, sabablar aniqlanadi, uni bartaraf etish chora-tadbirlar belgilanadi hamda mas'ul belgilanadi[5,6]. Belgilangan chora-tadbirni bajarilishiga qarab jarayon baholanadi.

		1	2	3		
		4	5	6		
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
		28	29	30		
		31				

✓ **Qizil belgi**  
baxtsiz hodisa  
bo'lganda  
qo'yiladi.





2-rasm. Ish vaqti yo`qotishini kuzatib borish.

**1-jadval**

**Baxtsiz hodisa sabablarini aniqlash va bartaraf etish**

Sana	Baxtsiz hodisa mazmuni	Baxtsiz hodisa sababi	Ko`rilgan chora	Mas`ul	Baho
12.02.10	Ishchi qo`li kesilgan	Detal kirrasi o`tkir, qulqop kiyilmagan, qulqop bilan o`z vaqtida ta`minlanmagan	Qo`lqopni o`z vaqtida berilishini ta`minlash	Brigadir Aliev A.	o
16.02.10	Ishchi oyog`i lat egan	Detallar noto`g`ri taxlanganligidan og`anab tushgan	Detallar ortiqcha taxlanmaslik bo`yicha kara haydovchisi o`qitildi	Soliev U.	Δ

**Tizim bo`yicha xavflarni kamaytirishga qo`yilgan talablar quyidagilardan iborat:**

- xavf turlarini aniqlash;
- baxtsiz hodisalar sabablarini o`rganish;
- xavfsiz metodlar bilan ish jarayonlarini ta`minlash;
- korxonada xavfsizlikni kuzatuvchi kengashini tashkil qilish;
- xizmat ko`rsatish jarayonlarida xavfsizlikni ta`minlash;
- mehmonlar xavfsizligini ta`minlash;
- avariya xolatlarida kutkarish rejasi bulishini ta`minlash;
- mahlumotlar almashuvi, tushuntirish, o`qitishlar va amaliy mashg`ulot-larni o`tkazishini ta`minlash;
- jarohatlanish/kasalliklarni monitoring va tahlilini olib borish;
- jarayonlar bo`yicha xavfsizlik yetakchilarini vazifasini aniqlash;
- xavfli materiallar nazoratini ta`minlash;
- xavfli joylarni chegaralash;
- mashina jihozlardagi energiya manbaalarini nazoratga olish;
- ergonomika (qulaylik)ni ta`minlash;
- qurilish-tahmirlash davrida xavfsizlikni ta`minlash;
- shovqindan himoyalani nazoratini olib borish;
- yuqoridan tushish xavfini nazoratini olib borish;
- ichki transportni xavfsizligini ta`minlash[10,11,12].





Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda mehnat muhofazasi masalasi xalqaro miqyosda o'ta dolzarb va jiddiy tus olayotgan masalalardan biri sanaladi. Avtomobil ishlab chiqaruvchi barcha korxonalarni jahon reytingidagi o'rni va mahsulotiga bo'lgan talab ularning mehnat muhofazasi yuzasidan olib borilayotgan xalqaro me'yor talablariga javob berishi bilan baholanmoqda. O'zbekiston avtomobilsozlik sanoati ham ushbu masalada xalqaro standartlarga bosqichma-bosqish o'tmoqda.

Maqola dotsent N.Qobulova rahbarligida tayyorlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017—2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasi haqidagi farmoni.
2. A.E.Parmonov, A.Igamberdiyev, G'.Dadayev, M.Qodirov. Hayot faoliyati xavfsizligi. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007. 196 b.
3. Kasbiy xavfsizlik va salomatlik menejmenti. O'z DSt OHSAS 18001:2011.
4. Jalilovna Q. N. et al. HIMOYA GAZLARI MUHITIDA PAYVANDLASHDA MEHNAT MUHOFAZASI //Archive of Conferences. – 2021. – T. 13. – №. 1. – С. 47-48.
5. Yusupov I. I. et al. TO REDUCE GLOBAL CLIMATE ISLAND FOCUSED LOCAL COOPERATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 11. – С. 501-507.
6. Алимova X. А. и др. Фрикционные свойства натурального шелка //Ж. Композиционные материалы. – 2013. – №. 2. – С. 25-27.
7. Кабулова Нилуфар Жалиловна Традиционно-национальный узбекский головной убор мужчин (тюбетейка-дуппи) ферганской долины // Universum: технические науки. 2020. №8-2 (77). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsionno-natsionalnyy-uzbekskiy-golovnoy-ubor-muzhchin-tyubeteyka-duppi-ferganskoy-doliny> (дата обращения: 17.11.2022).
8. Халматов Мислиддин Мухамматович, Исмаилходжаев Боходирходжан Шарипходжаевич, Кабулова Нилуфархон Жалиловна, Хусанов Дилмурод Декканович ГЕОФИЗИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЯ АТМОСФЕРНЫХ ЗАГРЯЗНИТЕЛЕЙ В АНДИЖАНЕ НА ОСНОВЕ УРАВНЕНИЙ АЭРОДИНАМИКИ // Universum: химия и биология. 2021. №6-1 (84). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/geofizicheskoe-modelirovanie-raspredeleniya-atmosfernyh-zagryazniteley-v-andizhane-na-osnove-uravneniy-aerodinamiki> (дата обращения: 17.11.2022).





9. Кабулова Нилуфархон Джалиловна, Ходжакулов Мухторжон Назаркулович, Рахимов Дилмурод Бахадирович АКТУАЛЬНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ (ПОИСКОВО-ИНФОРМАЦИОННАЯ КАРТОГРАФИЧЕСКАЯ СЛУЖБА, ГЕОЛОКАЦИЯ) В ПОДРАЗДЕЛЕНИЯХ МИНИСТЕРСТВА ПО ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН // Universum: технические науки. 2021. №7-1 (88). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnost-ispolzovaniya-programmnogo-obespecheniya-poiskovo-informatsionnaya-kartograficheskaya-sluzhba-geolokatsiya-v> (дата обращения: 17.11.2022).
10. Кобулова Н. Ж., Нарзиев Ш. М. ХОДИМЛАРНИНГ МЕҲНАТИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ //Здравствуйте, уважаемые участники международной научной и научно-технической конференции, дорогие гости!. – 2021. – С. 485.
11. Bakirov L. et al. GUARANTEE SAFE MOVEMENT BY DESIGNING DRIVER'S WORK MODE THROUGH VEHICLE KEY IN ORGANIZING INTERNATIONAL TRANSPORTATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 154-158.
12. Dostonbek Z., Bunyodbek M. Examination of Vehicles Carrying Fast-Breaking Cargo //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 14. – С. 25-29.

